

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**Ro'yxatga olindi: № 1.17-2023**

**"BIOTEXNOLOGIYA USKUNA VA JIHOZLARI"**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

**Ta'lif sohasi:** 710000 – Muhandislik ishi

**Ta'lif yo'nalishi:** 60710200 – Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa va qishloq  
xo'jaligi)

Fan kodi BUJ 1512	O'quv yili 2024/2025	Semestr 5,6	ECTS - Kreditlar 6+6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya</b> <b>Mashg'ulotlari</b> (soat)	<b>Mustaqil</b> <b>ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama</b> <b>(soat)</b>
	<b>Biotexnologiya uskuna va jihozlari</b>	180	180	360
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b> <p>Fanni o'qitishdan <b>maqsad</b> - Biotexnologiya uskuna va jihozlari fani biotexnologik jarayonlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan maxsus jihozlar tuzilishi, konstruksiyalarini, ishslash prinsipi tayyor maxsulot va homashyoga, texnologik jarayon operatsiyalarini, uskunalariga jarayon samaradorligiga turli omillarning tasiri to'g'risida ishlab chiqarish xisoblarini amalga oshirish va nazorat qilish, maxsulot ishlab chiqarish texnologik sxemasi va uskunalar jihozlari xaqidagi bilimlarni berishdan iborat.</p> <p>Fanning <b>vazifasi</b> - Biotexnologik jarayon jihozlari fanining vazifalari hozirgi zamonda tutgan o'rni va fan yutuqlari bilan talabalar bilan tanishtirish va ularda malakaviy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. "Biotexnologiya uskuna va jihozlari" fani asoslari.</b></p> <p>Biotexnologik jarayon jihozlari fan sifatida shakllanishigacha bo'lgan davrda oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish sanoatida xamda mikroorganizmlarni o'stirish usullari va biotexnologik jarayonning borishida ishlatiladigan uskunalaridan foydalanish. Bu uskunalarining jaxon andozasiga mos keladigan va xozirgi kun talabiga javob bera oladigan xillari xaqida xamda bu sohada chet el olimlarining hizmati va O'zbekistonda yetishib chiqqan qator olimlar xaqida.</p> <p><b>2-mavzu. Jarayonlarning asosiy turlari va ularning qonuniyatlari.</b></p> <p>Texnologiya rivojlanishining hozirgi davrdagi bosqichida biotexnologiyaning ro'li. Biotexnologik jarayon jihozlari fanining maqsad va vazifalari. Mikrobiologik ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy turlari. Biotexnologiyaning rivojlanish istiqbollari. Biotexnologik jarayonlar jihozlarining namunaviy spetsifikatsiyasi. Fermentyorlar, qattiq va sochiluvchan ozuqa muxitlarida o'stirish uskunalarini fotobioreaktorlar, komposlar uskunasi, biotexnologik jarayon jihozlarining namunaviy spetsifikatsiyasi.</p> <p><b>3-mavzu. Biotexnologik ishlab chiqarishning texnologik va loyihalash asoslari.</b></p> <p>Texnologik ishlab chiqarishning asosiy vazifalari, yo'nalishlari va uslublari. Loyihalash bosqichlari. Texno-iqtisodiy asoslash (TIA) ni tuzish. Loyihalash xujjalari: tarkib, ishlab chiqish tartibi, kelishish, tasdiqlash. Texnologik jarayonlarni mashtablash prinsiplari. Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash va modellashtirish.</p> <p><b>4-mavzu. Biotexnologik ishlab chiqarishdagi apparatlar, ularning material va detallari.</b></p> <p>Apparatlarning sinflanishi va ularga qo'yiladigan talablar, reaksiyon apparatlarning konstruksiyalarini aniqlash omillari, regeniratsiyalanayotgan moddalarning agregat holatlari, reaksiyon massaning konsistensiyasi, reaksiya temperaturasi, reaksiyaning issiqlik effekti, bosim.</p> <p><b>5-mavzu. Ozuqa muhitlarini sterillash. Avtoklavning ishslashning prinsipi</b></p> <p>Ozuqa muhitlari. Suyuq ozuqa muhitlarini sterillash. Sochiluvchan ozuqa muhitlari. Havoni tozalash va sterillash.</p>			

## **6-mavzu. Sentrafuga va separatorlar.**

Sentrafugalar. Ularning sinflanishi. Sentrafuga turlari. Tuzilishi va ishlash prinsipi. Suyuqlik separatorlari. Suyuqlik separatorlarining tuzilishi va ishlash prinsipi.

## **7-mavzu. Bug'latish apparatlari.**

Bug'latish jarayoni, asosiy tushunchalar. Suyuqlikning tabiy va majburiy sirkulyatsiyasiga asoslangan apparatlar. Markazdan qochma kuch ta'siridagi bug'latgichlar. Bir va ko'p bosqichli bug'latish apparatlar.

## **8-mavzu. Quritish uskunalari.**

Quritgichlar haqida umumiy tushunchalar. Quritish jarayonining moddiy va issiqlik balanslari. Quritish apparatlarining sinflanishi hamda ishlash prinsiplari.

## **9-mavzu. Ekstraktorlar va ularning ishlash prinsipi.**

Ekstraktorlarning tuzilishi. Adsorberlar. Umumiylar. Adsorberlarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Mikrobl li sintez mahsulotlarini konsentrash va tozalash uchun mo'ljallangan membranali apparatlar.

## **10-mavzu. Flotasjon uskunalar.**

Asosiy tushunchalar. Suspensiyalarning flotasjon konsentrishun mehanizmi.

### **6-semestr**

## **11-mavzu. Chang tutuvchi apparatlar.**

Changni dispersion tarkibi va chang tutish uskunasining samaradorligi. Siklonlar. Venturi skrubberi chang tutuvchi uskunalar.

## **12-mavzu. Xomashyoni jarayonga tayyorlash hamda uni uzatish uskunalar.**

Maydalagich mashinalar. Saralash mashinalari. Ko'taruvchi-transport asbob-uskunalar.

## **13-mavzu. Gidrolizatorlar va inventorlar.**

Gidroliz apparatlar va invertorlar. Kislotalarni neytrallash, ozuqa muhitlarining komponentlarini eritish va aralashtirish uchun qurilmalar.

## **14-mavzu. Tindirgichlar, filtrlar va gidrosiklonlar.**

Tindirgichlar, turari ishlash prinsiplari. Filtrlar ishlash prinsiplari va ularning turlari ishlash prinsiplari.

## **15-mavzu. Asosiy fermentatsion uskunalar va ularni tanlash.**

Gaz fazali energiya uzatish fermentyori, suyuq fazali energiya uzatish fermentyori. Kombinirlangan energiya uzatish fermentyori.

## **16-Mavzu. Xomashyoni va tayyor mahsulotni saqlash uchun uskunalar va ularni saqlash rejimlari**

Saqlash uskunalar, ularning turlari, saqlash rejimlari va ishlash prinsiplari.

## **17-Mavzu. Biosensorlar.**

O'ta kam miqdordagi gazsimon suyuq va qattiq moddalarni aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan, yuqori sezgir biologik tabiatli, sun'iy elementlar.

## **18-mavzu. Organik chiqindilar biokonversiyasi.**

Ekologik muammolarni keskinlashuvi, qayta tiklanmaydigan energoresurslar zahirasini tobora kamayib borishi, ularni tan narxi oshishi, organik chiqindilarni qayta ishlash, ularni issiqlik va boshqa turdag'i energiyaga aylantirish.

## **19-mavzu. Aminokislota va organik kislotalar ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Aminokislolar, lizin va glutamin kislota ishlab chiqarish, organik kislotalar olish, sirka kislota ishlab chiqarish, sut kislota ishlab chiqarish.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma tavsiyalar:**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini hisoblash
2. Davriy va uzviy ishlovchi uskunalarini hisoblash
3. Texnologik hisoblashlar uchun asosiy ma'lumotlar
4. Sentrifugalarning asosiy hisobi
5. Quritish jarayonini o'rghanish
6. Ozuqa muhitlarini konsentrash uchun bug'latish uskunasi hisobi
7. Fermentyoriarni hisoblash

8. Issiqlik almashuvchi uskunalarini issiqlik balansini hisoblash
9. Suspenziyani sovitish uchun issiqlik almashinish uskunasi hisobi
10. Konsentrangan biomassani yig'ish uskunasi hisobi
11. Suyuq ozuqa achitqisi tayyorlash sexining texnologik jihozlari hisobi
12. Asosiy va yordamchi uskunalarning apparaturaviy hisobi
13. Uskunani sterillash rejimi hisobi
14. Mexanik hisob va gidravlik hisob
15. Asosiy va yordamchi binolardagi uskunalarini komponovkalash

#### **IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma tavsiyalar:**

*Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Biotexnologiya laboratoriyasida ishlash qonun qoidalari
2. Markazdan qochma nasosning konstruksiyasi va ishlash prinsipi
3. Porshenli kompressorlar detallarini o'rghanish
4. Markazdan qochma ventilyatorning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash
5. Vibratsion barabanli tegirmونning quvvatini hisoblash
6. IQ (infra qizil) isitgich
7. Davriy ishlaydigan SVCH pechlarining ishlash prinsipi
8. Gaz-suyuqlik bioreaktorida fazalararo yuzani aniqlash
9. Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini aniqlash
10. Markazdan qochma ventilyatorlarning xarakteristikalarini aniqlash.
11. Aktivlangan ko'mir halqasimon va yarim sfera qatlamlı adsorber gidrodinamikasi
12. Zarachalarning uchib chiqish tezligini aniqlash
13. Hujayra va to'qima to'plamlari bilan ishlash jarayonida sterillash usullari
14. Mikroorganizmlarni ekish uchun ozuqa muhitini tayyorlash va sterilizasiya qilish hamda produsentni suyuq va qattiqozuqa muhitida o'stirish
15. Chiqindisiz texnologiya yaratish.

#### **V. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Mikroorganizmlarni, o'simlik va xayvon xujayralarni o'stirish jihozlari
2. Bioreaktorlarning sinflanishi
3. Fermentatsiyalashga mo'ljallangan «qaynovchi qatlam» hosil qiluvchi apparatlar
4. Sterilizatsiyalash usullari
5. Ultrafiltratsiya bilan ta'minlangan bioreaktorlar
6. Davriy va uzlusiz tizimda ishlovchi bioreaktorlar
7. Sublimatsion quritgichlar
8. Biotexnologik jarayonlarni amalga oshirish jihozlari
9. Mikroorganizmlarni sirt yuzasida o'stirish jihozlari
10. Ferment preparatlari ishlab chiqarish uskunalari
11. Mikroorganizmlarni o'stirishda o'simlik chiqindilaridan foydalanish
12. Mikroorganizmlardan biotexnologik jarayonlarda foydalanish
13. Kultural suyuqlikdan maxsulotlarni ajratish
14. Chiqindilarni qayta ishlash uskunalari
15. Bug'latish apparaturasi
16. Rotorli pardali bug'latgichlar
17. Quritgich apparatlarining klassifikatsiyasi va ishlash prinsipi
18. Tishli (shesternyali) va porshenli nasoslar konstruksiyasi va ishini o'rghanish

3.

#### **Kurs loyiha ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Kurs loyihasi uchun tahminiy mavzular:

1. Fermentyorning loyihasi.
2. Maydalagich mashinalarni loyihasi.
3. Saralash mashinalarini loyihasi.

	<p>4.Gidrolizapparatlar va invertorlarni loyihasi.</p> <p>5. Mikroorganizmlarni sirt yuzasida o'stirish jixozlarini loyixasi.</p> <p>6. Immobilizatsiyalangan fermentlarga asoslangan bioreaktorni loyixasi.</p> <p>7. Bijg'ish reaktorini loyixasi.</p> <p>8. Ikkilamchi bijg'ish jarayoni bioreaktorini loyixasi.</p> <p>9.Qandli moddalarni biotexnologik usulda olish jixozlarini loyixasi.</p> <p>10.Mikroorganizmlarni suyuq muxit ichida o'stirish jixozlarini loyixasi.</p> <p>11.Ultrafiltratsion qurilmalar jixozlarini loyixasi.</p> <p>12.Membranali bioreaktorlarning loyixasi.</p> <p>13.Ozuqa yemi tayyorlash uskunalarini loyihasi.</p> <p>14.Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishda qurilmalar jihozlarini loyihasi.</p>
4.	<p><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida <b>talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xomashyolarni qayta ishlash korxonalarini birlamchi va ikkilamchi, biotexnologiya jarayonlari jihozlari fanining xozirgi vaqtida tutgan o'rni va erishgan natijalarini va yutuqlarini, biotexnologiya jarayonlari jihozlari fani yordamida xalq ho'jaligi va sanoatining erishayotgan muvaffaqiyatlari to'g'risida <b><i>tasavvurga va bilimga ega bo'lishi;</i></b></li> <li>- Biotexnologik jarayonlarni tashkil etish asoslarini o'rganish, fermentyor va bioreaktorlar turlari xaqida malumotga ega bo'lishi, sterilizatorlar va issiqlik almashinuv uskunalarining zamonaviy turlari xaqida bilish, biotexnologik jarayonlarni amalga oshirish va nazorat qilish usullarini bilish va amaliyotda qo'llay olish jarayonlarini <b><i>tassavur va bilimga ega bo'lish;</i></b></li> <li>- Oziq-ovqat maxsulotlari, ferment preparatlari va oziq-ovqat qo'shimchalari ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan jihozlar tuzilishi, ishlash prinsiplari va ishlatish tizimlarini o'rganish, nazorat qilish detoktorlari va ularni turlarini, sterizatsiyalangan xavo olish uskunalari va texnologik jarayonlarini <b><i>ko'nikmalariga ega bo'lish;</i></b></li> <li>- Xujayralardan metabolit maxsulotlarni ajratish va tozalash, biotexnologiya jarayonlari jihozlari fanining istiqbollari yuzasidan tashkil etish xaqida <b><i>malakalariga ega bo'lishi kerak;</i></b></li> </ul>
4.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blits-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishslash va himoya qishi;ish uchun loyihalari.</li> </ul>
5.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun barilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ho'jashukurov N.A., Maqsudova D., Biotexnologik jarayonlarning jihozlari. Darslik T.;Tafakkur bo'stoni. 2014.-160 bet.</li> <li>2. Davronov Q.D., Aliqulov B.S., Biotexnologiya/ Darslik. –Samarqand, 2022. "Lessons press" nashriyot,-452 b.</li> <li>3. Q.D.Davronov, B.S.Aliqulov, Nanobiotexnologiya. Darslik – Samarqand, SamDU nashri, 2019-272 bet.</li> <li>4. Yusufbekov N.R, Nurmuxammedov X.C, Ismatullayev P.R, "Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining jarayonlari va qurilmalari fanidan xisoblar va misollar. ToshKTI,1999.-351 b.</li> </ol>

	<p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston", 2017, 488 b.</li> <li>T.J Pirimov, A.A Nurmuxammedov, D.I G'anjonov "Biotexnologik jarayon va jihozlar" fanidan o'quv uslubiy majmua. Guliston 2023.-448 b.</li> <li>К.Ф.Павлов, П.Г. Романков, А.А. Носков, "Примеры и задачи по курсу процессов и аппаратов чимической технологии". -10-е изд., перераб. и доп.-Л.: Химия, 1987.-576 с., ил.</li> <li>Sattarov K.K, Pirimov T.J, Nurmuxammedov A.A, "Oziq-ovqat injinering jarayonlari va qurilmalari masalalar to'plami" o'quv uslubiy qo'llanma, Guliston 2020-172 b.</li> <li>Pirimov T.J, G'anjonov D.I, "Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar" laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Guliston 2022-120 b.</li> </ol> <p><b>6. Axborot manbaalari</b></p> <p><a href="http://www.texnology.ru">www.texnology.ru</a>  <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a>  <a href="http://www.bilimdon.uz">www.bilimdon.uz</a>  <a href="http://www.ref.uz">www.ref.uz</a>  <a href="http://www.omgtu.ru">www.omgtu.ru</a>  <a href="http://www.dpo-msu.ru">www.dpo-msu.ru</a>  <a href="http://www.ximik.ru">www.ximik.ru</a></p>
7.	O'quv dasturi Guliston davlat universitet Kengashi tamonidan (2023 yil "___" _____dagi -sonli bayonnomma) maqullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>T.J. Pirimov - GulDU, "Oziq-ovqat texnologiyalari" kafedrasi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.</p> <p>D.I. G'anjonov - GulDU, "Oziq-ovqat texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Nigmadjanov S.K. - TKTI "Kemyoviy texnologiya jarayon va qurilmalar" kafedrasi t.f.n dots.</p> <p>Abdullayeva S.SH - TKTI "Kemyoviy texnologiya jarayon va qurilmalar" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d PhD</p>